



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "QIZIL KITOB"GA (2006-2019)  
KIRITILGAN CHUCHMOMADOSHLAR(AMARYLLIDACEAE)  
OILASINING SOLISHTIRMA TAHLILI**

Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi

AndDUPI, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: madinaxon14092004@mail.ru

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob"i 2006- 2019-yil nashrlarining 1-tomiga kiritilgan Chuchmomadoshlar oilasining solishtirma tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qizil kitob, kamyoblik darajasi, maqomi, hayot shakli, o'sish holati.

**Annotation:**

In this article, a comparative analysis of the Chuchmomadosh family, included in Volume 1 of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan, 2006-2019 editions, is carried out.

**Key words:** Red book, degree of rarity, status, form of life, state of growth.

Butun dunyoda o'simliklar ahamiyati keng tarmoqli hisoblanadi. Ular hozirgi dunyoning har bir soxasiga kirib borgan. Transport, oziq ovqat, fan, qurilish, farmasevtika, tibbiyot va hokazo, yani bu ro'yxat hali anchaga cho'zilishi mumkin. Ayniqsa o'simliklarsiz oziq-ovqat tarmog'ini tasavvur qilish qiyin. Undan tashqari o'simliklar odamzod uchun eng muhim bo'lgan yana bir qancha moddalar aylanishida ishtirok etadi. Qolaversa, biz insonlarning hayoti uchun zarur bo'lgan kislorod manbai ham o'simliklar hisoblanadi. Kislorod konsentratsiyasi barqaror bo'lishi uchun o'simliklar va ularning tabiatdagi soni ham barqaror bo'lishi kerak[4]. Shuning uchun o'simliklarni asrash, ular sonini barqarorligini ta'minlash biz insonlarni oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

O'simliklarni barqarorligini ta'minlash va asrash choralarining eng muhim yo'nalishlaridan biri - Qizil kitob hisoblanadi.

"Qizil Kitob"ga kiritilgan o'simlik turlariga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan 4 tasnifga binoan kamyobligiga ko'ra 4ta maqom(status) beriladi[1].



**o. Yo'qolgan yoki yo'qolgan bo'lishi mumkin.** Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin yig'ib olish qiyin bo'lgan ayrim joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlab qolish ehtimoli mavjud bo'lgan turlar.

**1.Yo'qolish arafasida turgan.**Yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan, saqlab qolinishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

**2.Kamyob.** Ma'lum kichik maydonlardagina o'ziga xos sharoitlarda saqlab qolingan, ammo tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

**3.Son jihatdan kamayib borayotgan.** Soni va tarqalgan maydonlari ma'lum vaqt ichida tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson omili ta'siri ostida kamayib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda bunday o'simliklarni har tomonlama nazoratga olish talab etiladi[1].

“Qizil Kitob”ning 2006 va 2019-yillardagi nashrlarida Chuchmomadoshlar oilasi o'ziga xos o'ringa ega. “Qizil Kitob”ning 2006-yilgi nashriga 325 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lib shulardan 3 tasi(Viktor omonqorasi, sariq stenbergiya, fisher shtenbergiyasi) Chuchmomadoshlar oilsiga mansub turlar hisoblanadi. Chuchmomadoshlar oilasi vakillarining Yo'qolgan yoki yo'qolgan bo'lishi mumkin mumkin bo'lgan turlari (**kamyoblik darajasi – o**) mavjud emas, Yo'qolish arafasida turgan turlari (**k.d. – 1**) soni 2ta, kamyob turlari (**k.d. – 2**)soni 1ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar (**k.d. – 3**) ham mavjud emas.(1-jadval)[2].

Ushbu 3 ta tur o'simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etganimizda, ularning barchasi ko'p yilik piyozboshli o'simliklar ekanligi aniqlandi(1-jadval). Mazkur o'simliklarning 2tasi: viktor omonqorasi(1970-yildan beri tabiiy arealiga yaqin joylarda ekib o'stirila boshlangan)va sariq shternbergiya(O'zbekiston Respublikasi FA Botanika bog'ida o'stiriladi) madaniylashtirilganligi haqida, qolgan 1 ta tur o'simlik: fisher shternbergiyasini O'zbekiston Respublikasi FA Botanika bog'ida sinab ko'rilayotganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek ushbu turlar(viktor omonqorasi, sariq shternbergiya, fisher shternbergiyasi)ni Tog'larning o'rta qismida mayda zara jins tuproqli yonbag'rlarda, daralarda ba'zan surilmalarda(viktor omonqorasi), tog'larning o'rta qismidagi qoyalarda va toshli yonbag'irlarda(sariq shternbergiya), tog' oldi yonbag'irlaridagi tuproqlarda(fisher shternbergiyasi) o'sishi haqida ham ma'lumotlar keltiriladi(1-jadval)[2].



**1-jadval:**

Jami turlar soni	Maqomi		Hayot shakli	O'sish holati		O'sish joyi
	1	2	Ko'p yillik o't	Tabiiy	Madaniy holda	Tog'
3	2	1	3	1	2	3

“Qizil Kitob”ning 2019-yilgi nashriga 314 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lib shulardan 17 tasi(Aralash piyoz, aplotun piyozi, piskom piyozi, oloy piyozi, bochansev piyozi, bakxaur piyozi, katta piyoz, yirik piyoz, isoqul piyozi, pushti gulli piyoz, ravon piyozi, manzarali piyoz, saxro piyozi, yashil gulli piyoz ) Chuchmomadoshlar oilsi hissasiga to'g'ri keladi. Chuchmomadoshlar oilasi vakillarining Yo'qolgan yoki yo'qolgan bo'lishi mumkin mumkin bo'lgan turlari (**kamyoblik darajasi – o**) soni 1ta, Yo'qolish arafasida turgan turlari (**k.d. – 1**) soni 10ta, kamyob turlari (**k.d. – 2**)soni 3ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar (**k.d. – 3**) soni 3ta(2-jadval)[3].

Ushbu 17 tur o'simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, ularning barchasi ko'p yillik piyozboshili o'simliklar ekanligi aniqlandi(2-jadval). Mazkur o'simliklardan 4 ta tur(bochansev piyozi, pushti gulli piyoz, raven piyozi, saxro piyozi) madaniylashtirayotganligi haqida ma'lumotlar yo'q, 1 ta tur(manzarali piyoz)ni O'zR FA Botanika bog'ida ekilganda, natijalar samarasiz bo'lganligi, 1 ta tur(piskom piyozi)ni mahalliy aholi tomorqa yerlarida o'stirishi, yana bir tur(viktor omonqorasi)ni 1970-yildan tabiiy arealiga yaqin joylarda ekib o'stirilishi, 1ta tur(fisher shternbergiyasi)ni O'zR FA botanika bog'ida sinab ko'rilayotganligi va qolgan turlar(aralash piyoz, aplotun piyozi, oloy piyozi, bakxaur piyozi, katta piyoz, yirik piyoz, isoqul piyozi, yashil gulli piyoz, sariq shternbergiya, )ni O'zR FA Botanika bo'ida ekib o'stirilganligi va ekib o'stirib kelinayotganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan(2-jadval). Shuningdek ushbu turlarning aksariyat barchasi tog' hududining turli joylarida o'sishi aniqlandi[3].



**2-jadval:**

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli	O'sish holati		O'sish joyi
	0	1	2	3	Ko'p yillik o't	Tabiiy	Madaniy holda	Tog'
17	1	10	3	3	17	5	12	17

"Qizil kitob"ning 2006-2019-yildagi nashrlaridagi Chuchmomadoshlar oilasi vakillarini o'rganishimiz davomida 2006- yildagi nashrga kiritilgan turlarni hammasi 2019-yilgi nashrga ham kiritilganligini, shu bilan birga chuchmomadoshlar oilasi vakillarining muhofazaga muhtoj turlari soni 2019-yilga kelib keskin ortganligini guvohi bo'ldik. Buning sababi sifatida, qishloq xo'jaligida chorva mollarining boqilishi, urug'lari unuvchanligining pastligi, mahalliy aholi tomonidan piyozining kovlab olinishi va boshqa ko'plab sabalarni keltirish mumkin[3].

Ushbu izlanishimiz davomida O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ning 2006-2019 yil nashrlaridagi chuchmomadoshlar oilasi o'simliklarining (jami turlar soni, maqomi, hayotiy shakli, o'sish holati va o'sish joyi jihatidan) qiyosiy tahlili haqida ma'lumotlar aniqladik. Keyingi izlanishlarimiz davomida O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ning 2006-2019 yil nashrlaridagi boshqa oila o'simliklarining (jami turlar soni, maqomi, hayotiy shakli, o'sish holati va o'sish joyi jihatidan) qiyosiy tahlilini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shu orqali bevosita O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob" idagi barcha oila vakillarining dinamikasini bilgan holda ularning yaqin yillardagi ekologik bashorati(prognoz)ni amalga oshirishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2016
2. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2006.
3. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. - Toshkent: Chinor ENK, 2019.
4. Ro'zimatov E.Yu., Foziljonov Sh., Yuldashev X.E. "Farg'ona vodiysi kamyob o'simliklar turlari" atlas lug'ati. Toshkent. "Fan ziyosi".2021.